

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG'RIKENGLIK SIYOSATI

Valisher Abirov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti

Boltaboyeva Ruxshonabonu

TDSHU, Xorijiy til va adabiyoti fakulteti

1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosatining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, 2017-yildan buyon amalga oshirilgan huquqiy, institutsional va ijtimoiy islohotlar, ta'lim va xalqaro hamkorlikning ahamiyati, shuningdek, mintaqaviy va global tashabbuslarning jamiyat barqarorligiga ta'siri yoritib beriladi. O'zbekiston tajribasi millatlararo hamjihatlikni ta'minlashda samarali va barqaror model sifatida baholanadi.*

Kalit so'zlar. *Yangi O'zbekiston, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, diniy muvosiqlilik, davlat siyosati, xalq diplomatiyasi, ijtimoiy barqarorlik, madaniyatlararo mulohaza.*

Annotation. *This article examines the formation and development of interethnic harmony and religious tolerance policy in New Uzbekistan. It analyzes the legal, institutional, and social reforms implemented since 2017, the role of education and international cooperation, as well as regional and global initiatives in strengthening social stability. Uzbekistan's experience is assessed as an effective and sustainable model for ensuring interethnic cohesion and tolerance.*

Keywords. *New Uzbekistan, interethnic harmony, tolerance, religious tolerance, state policy, public diplomacy, social stability, intercultural dialogue.*

Globallashuv jarayonlari jadallashgan bugungi davrda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo nizolar, diniy muvosiqlilik va ijtimoiy ajralish holatlarining kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Bunday sharoitda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik nafaqat siyosiy barqarorlikni, balki umuminsoniy tinchlik va taraqqiyotni ta'minlovchi muhim qadriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston ana shunday murakkab global vaziyatda millatlararo hamjihatlikni o'z taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, shuningdek, 16 diniy konfessiya vakillari tinch-totuv hayot kechirmoqda. Har bir xalqning tili, madaniyati va urf-odatlariga

hurmat bilan yondashilib, barcha fuqarolarning teng huquqliligi qonuniy asosda kafolatlangan.

2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar “Yangi O‘zbekiston” tushunchasini real mazmun bilan boyitib, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni davlat siyosatining muhim ustuniga aylantirdi.

Yangi siyosiy bosqich: huquqiy va institutsional asoslar (2017–2018)

2017-yil O‘zbekiston tarixida millatlararo munosabatlar sohasida tub burilish davri bo‘ldi. 19-may kuni Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining tashkil etilishi ushbu yo‘nalishda tizimli va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritishga zamin yaratdi. Mazkur tuzilma milliy madaniy markazlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xalq diplomatiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xuddi shu yili qabul qilingan 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida belgilandi. Afv institutining kengaytirilishi esa ijtimoiy ishonch muhitini mustahkamlab, jamiyatdagi keskinliklarni yumshatishga xizmat qildi.

2018-yilda “Do‘stlik uylari” faoliyat boshlashi milliy madaniy markazlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi ochilishi mamlakatimizni mintaqaviy madaniyatlararo muloqot maydoniga aylantirdi.

Xalqaro miqyosda esa O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasida “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimizning tinchlikparvar siyosati jahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilganining yorqin dalili bo‘ldi.

Ta‘lim va xalqaro ochiqlik: AQSH bilan hamkorlik

2018-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyevning AQSHga amalga oshirgan rasmiy tashrifi O‘zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik va o‘zaro ishonch tamoyillarini yanada mustahkamladi. Aynan shu yili tashkil etilgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali minglab iqtidorli yoshlar nufuzli xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu tashabbus ta‘lim orqali madaniyatlararo muloqotni kengaytirish va bag‘rikenglik ruhini mustahkamlashga xizmat qildi.

AQSHda o‘tkazilgan “O‘zbekiston kunlari” madaniy tadbirlari, shuningdek, parlamentlararo va hududlararo hamkorlik aloqalari xalqlar o‘rtasidagi bevosita munosabatlarni rivojlantirdi. 2022-yilda ikki davlat o‘rtasida strategik sheriklikning o‘rnatilishi, 2025-yilda esa C5+1 formati doirasidagi muloqotlarning yangi bosqichga ko‘tarilishi mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Insonparvarlik va tizimli yondashuv

2019-yilda tasdiqlangan Millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirishga qaratildi.

“Mehr” gumanitar operatsiyalari doirasida mojaroli hududlardan ayollar va bolalarning Vatanga qaytarilishi O‘zbekistonning insonparvarlik tamoyillariga sodiqligini amalda namoyon etdi.

2021-yilda 30-iyulning Xalqlar do‘stligi kuni sifatida belgilanishi, “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishonining ta’sis etilishi hamda “Vatandoshlar” jamoat fondining tashkil etilishi bag‘rikenglik siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Yangi strategiyalar va global tashabbuslar

2022-yilda qabul qilingan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi (2022–2026) millatlararo totuvlikni davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida mustahkamladi. “Deklaratsiyalar dialogi” forumi hamda “Buxoro deklaratsiyasi”ning BMT rasmiy hujjati maqomini olishi mamlakatimizning global bag‘rikenglik siyosatidagi nufuzini oshirdi.

2023–2024-yillarda O‘zbekiston BMT va boshqa xalqaro maydonlarda diniy murosasizlik va kamsitishlarga qarshi qat’iy va izchil pozitsiyasini namoyon etdi.

2025-yil: mintaqaviy hamjihatlik ramzi

2025-yil 31-mart kuni O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston chegaralari tutashgan hududda “Do‘stlik” stelasining ochilishi Markaziy Osiyoda tinchlik, o‘zaro ishonch va hamkorlikning ramziy ifodasiga aylandi. Ushbu voqea mintaqaviy barqarorlik siyosatining amaliy natijasi sifatida tarixda muhrlandi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik siyosati izchil, tizimli hamda real natijalarga yo‘naltirilgan tarzda amalga oshirilmoqda. Huquqiy asoslar, ta’lim, madaniyat va xalqaro hamkorlik orqali bu qadriyatlar mustahkamlanib, O‘zbekiston tinchlik va hamjihatlik namunasi sifatida e’tirof etilmoqda.

Bugun ushbu siyosat har bir fuqaroning mas’uliyati, Vatanga sadoqat va kelajak oldidagi burchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Totuvlik – O‘zbekistonning kuch-qudrati va barqaror taraqqiyotining mustahkam poydevoridir.

Foydalanilgan manbalar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi (2022–2026). – Toshkent, 2022.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. – 2019-yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik – barqaror taraqqiyot asosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023-yilgi tahrir.
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi. “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi. – Nyu-York, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi rasmiy materiallari.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
9. Abirov V. Globallashuv sharoitida millatlararo munosabatlar masalalari // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2021.
10. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy axborotlari va hisobotlari (2018–2025).